

TABIY FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Djurayeva Nargis Narkulovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy fanlar tarkibi, fanlarni o'rganishdan maqsad, fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuv asosida interfaol metodlarni qo'llash haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Tabiiy (SCIENCE) fanlar, "innovatsiya", "interfaol usullar", "innovatsion texnologiyalar", integratsiya, "Organayzer" metodi, "So'z top" o'yini, "Muzyorar" metodi.

Аннотация: Содержание естественных наук в этой статье из изучения естественных наук цель состоит в том, чтобы использовать интерактивные методы, основанные на инновационном подходе к преподаванию предметов.

Ключевые слова: Естественные (научные) науки, "инновации", "интерактивные методы", "инновационные технологии", интеграция, метод "ОРГАНАЙЗЕР", игра "Найти слово", метод "Музёрап".

Annotation: In this article the composition of Natural Sciences, from the study of Sciences the goal is to apply interactive methods based on an innovative approach to teaching subjects.

Keywords: Natural (SCIENCE) Sciences, "Innovation", "interactive methods", "innovative technologies", integration, "organizer" method, "Word top" game, host "Method,

Hozirgi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida ham 2021-2022 o'quv yilidan boshlab 1-6 sinflarda tabiiy fanlarni o'zida jamlagan Tabiiy (SCIENCE) fanlar joriy etildi.

Tabiiy (SCIENCE) fanlar ayni vaqtda o'qitib kelinayotgan 1-2-sinfda "Atrofimizdagi olam", 3-4-sinflarda "Tabiatshunoslik", yuqori sinflarda esa 4ta alohida fanlar, ya'ni geografiya, biologiya, fizika (6-sinfdan boshlab), kimyo (7-sinfdan boshlab) fanlarini o'zida birlashtiradi.

Tabiiy (SCIENCE) fanlarning afzalliklari va ahamiyati shundan iboratki, fan orqali o'quvchi olamning yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglaydi, ilmiy dunyoqarashi shakllanadi, tadqiqotchilik ko'nikmalari rivojlanadi. Tabiiy fanlar - insonni, uning sog'lig'ini, shuningdek butun atrof-muhitni: tuproqni, atmosferani, umuman yerni, kosmosni, tabiatni, barcha jonli va jonsiz jismlarni tashkil etuvchi moddalar va ularning o'zgarishini o'rganadigan fanlardir.


Tabiatda ro'y berayotgan hodisa va jarayonlar, tirik organizmlarning rivojlanish bosqichlari, tabiat va jamiyat qonunlariga insoniyatning ko'rsatadigan ta'sirlari haqida ilmiy va amaliy bilimlar majmuasini yoritish tabiiy va iqtisodiy fanlar blok-modulining asosiy vazifasini belgilab beradi. O'quvchining ichki motivatsiyasining qanchalik shakllanganligi tabiiy va iqtisodiy fanlarga qiziqishi, atrof-muhit muammolarini anglashi va uni hal qilishda muhim qarorlarni qabul qilishni bilishi hamda tabiiy va sotsial muhitga ta'sirini tahlil qilishda muhim hisoblanadi.

Fanlarning o'zaro integratsiyasi o'quvchilarda tabiatni butun bir borliq sifatida, olamning yagona manzarasini anglashlariga yo'naltirmog'i lozim. Shu bilan birga, o'quvchilar inson faoliyatining tabiatga salbiy va ijobiy ta'siri, zamon va makon miqyosidagi global ekologik muammolarni va tabiat oldida javobgarlik hissini tushunishi, Shuningdek, sog'lom turmush tarziga amal qilishlari hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini, tabiat va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladigan kompetent shaxsni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Tabiiy fanlarni alohida predmet sifatida o'qitish 1- sinfdan boshlanadi. O'quv materiallari - «Tabiat jismlari», «O'simlik va hayvonot olami», «Sog'ligimizni saqlaymiz» va «Ekologiya» mavzulariga birlashtirilgan. Tabiiy fanlar bo'yicha dastur kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga faqat jonajon tabiat go'zalligi va boyliklarinigina emas, balki respublikamizning tabiatini o'rganishga ham imkon beradi. Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning ilmiy-tabiiy dunyoqarashlarini shakllantirish va kengaytirish, mantiqiy

fikrlashga o'rgatishda har bir dars mavzusini bayon qilishga e'tibor beriladi. O'quvchilar topshiriqlarni individual bajarish jarayonida ularning aqliy faoliyati jalb etiladi, o'z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonch ortadi. Buning natijasida har bir shaxs o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi. Shu tarzda tashkil etilgan bilish faoliyatida vaqtdan unumli foydalaniladi va natijada ta'lim samaradorligi ortadi. Ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanib o'tiladigan darslarda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi.

“Organayzer” metodi. Ushbu metod o'quvchilarga muammolar (mavzular) xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. “Organayzer” metodi turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Bu metod aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli hisoblanadi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. — “Organayzer” metodi tarmoqlashning shunday turiki, unda faqat birlamchi yoki faqat ikkilamchi ma'lumotlar emas, balki, ham birlamchi, ham ikkilamchi ma'lumotlar ochiq qoldirib beriladi. O'quvchilar qaysi tarmoq ochiq bo'lsa, shu joyning ma'lumotini topishi kerak. Bunda ularga o'qituvchi tomonidan yozilgan ma'lumotlar yordam beradi. Masalan:



Bu usulni o'quvchilarning o'ziga alohida qog'ozga ham, yoki guruh uchun vatman qog'oziga ham berish mumkin. Topshiriqning bajarilishini slaydlar orqali tekshirish ham mumkin. “Organayzer” usuli shunisi bilan qulayki, u boshlang'ich ta'limdagi har qanday fanda ham ishlatilishi mumkin. 3-4-sinflarda “Organayzer” metodini qo'llash imkoniyatlari kengayadi, chunki o'quvchilarda mavzular asosidagi tushunchalari kengayib boradi. “Organayzer” metodidan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan

mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmuyi tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa guruhning har bir a'zosi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.

“Soʻz top” o'yini. Bu metoddan darsning hamma qismlarida foydalanish mumkin.

O'qituvchi qushlar, hayvonlar, meva, sabzavotlar haqida bir soʻz aytadi, o'quvchilar davom ettiradilar. O'qituvchi boshlagan soʻz qaysi harf bilan tugasa, o'quvchi shu harfdan boshlagan soʻzni aytishi kerak.

Masalan: tipratikan — ninachi—it—taka— ayiq — qarg'a — ari—ilon va hokazo. Bu usul o'quvchilarni tezkorlik bilan fikr yuritib, javob berishga hamda xotirasini mustahkamlashga yordam beradi

“Muzyorar”metodi. Bu metod dars o'tilayotgan sinfda o'quvchilar befarqligining oldini olishga dars jarayonida hosil bo'lgan charchoqni va o'quvchilarga ruhiy bosim bo'lishining oldini olishga mo'ljallangan ma'lum bir xildagi faol faoliyat turidir. Demak, ular sinfda yuzaga kelgan “muzlash” ning oldini olish va agar bunday “Muzlash” hosil bo'lgan bo'lsa, uni eritib, yorib yuborish uchun ishlatilishi mumkin. Ko'pgina o'qituvchilar “muzyorar” larni ta'limni boshlang'ich bosqichidagina ishlatadilar, lekin uni xuddi shunday muvaffaqiyat bilan dars davomida, o'quvchilar bilan yoki o'quvchilararo muloqot ma'lum sabablarga ko'ra qiyinlashganda ham ishlatish mumkin. Hozirgi kunda tabiiy fanlardan ta'lim berayotgan o'qituvchisi bu yangi ta'lim usuli va metodlaridan qay darajada foydalanyapti? Bizningcha darslarda bu metodlardan ayrim murabbiylar unumli foydalanmayapti. Jamiyatning axborotlashuvi ta'lim tizimida uzluksiz innovatsiyalarni talab etadi. Bugun har qanday uslub darhol eskirishi va yangi metodlar bilan boyitilishi mumkin. Dars mashg'ulotida kerakli natijalarga erishish qaysi omillarga bog'liq? Dunyoning turli mamlakatlarida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ta'limda innovatsiyalarni qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Ularda “innovatsiya”, “interfaol usullar”, “innovatsion texnologiyalar” to'g'risida yaxshi axborotlar to'plangan, biroq axborot texnologiyalarini ta'lim muassasalarida o'rgatish samaradorligini o'ttirish bo'yicha aniq tavsiyalar yetarli emas. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni qo'llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

o'quv fanining aniq maqsadini aniqlash;

fanning hajmi va mazmunini aniqlash;

zarur bo'lgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;

fanning moddiy va texnik ta'minotini yaratish;

ta'lim oluvchilarning xususiyatlarini o'rganish;

o'qituvchining tayyorgarligi va dars mashg'ulotini loyihalash.

Yuqoridagi vazifalar ichida eng muhimi, bu o'quv jarayonini tashkil etish uchun eng maqbul bo'lgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va uni amaliyotda samarali qo'llashdir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish. e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

XULOSA

O'quvchilarning tabiat to'g'risidagi ilmiy jihatdan boxabarligi ularning dunyoqarashlarini shakllantirish, tafakkurini rivojlantirishda tabiat qonunlarini asoslab berishda biologiya, tabiiyot va geografiya, fizika, kimyo, iqtisodiy bilim asoslari va tadbirkorlik asoslari o'quv predmetlari muhim

ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, interfaol usullardan foydalanish, tabiiy fanlar fanini samarali o'zlashtirishga hamda barkamol va komil shaxslarni tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi —O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5712-conli farmoni.
1. G Sayfullaev, L Alimova, U Olloкова. Formation of environmental knowledge in pupils of second class in the lessons the world around us. Bridge to science: research works, 206-208.
2. ГМ Сайфуллаев, ЛХ Алимова, БОУ Ходиев. Формирование и развитие ихтиофауны водоемов низовьев р. Зарафшан. Вестник науки и образования, 22- 25.

WORDLY
KNOWLEDGE